




JIZZAX VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI




2023- YIL YANVAR

Dastlabki ma'lumotlar


Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **25,0** ming birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **14,5** ming birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **58,1 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,6 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
(1-fevral holatiga ko'ra, ming birlikda)




Taqqoslash uchun:
2019- yil 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **59,8 %** ni, ya'ni **9,5** ming birlikni tashkil etgan. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ularning o'sish sur'ati **116,3 %** ni tashkil etgan.

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonidan (**21,6** ming birlik) **11,2** ming birligi xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilingan. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi **77,2 %** ni tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi esa **22,8 %** ni (**3,3** ming birlik) tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:
2019- yilning 1- fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasining ulushi **62,1 %** yoki **5,9** ming birlikni tashkil etgan.


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari
(1-fevral holatiga ko'ra, ming birlikda)



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Jizzax viloyati bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar oyida) ¹⁾



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023- yilning yanvar oyida** bozor xizmatlari hajmi **658,6** mlrd. so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar oyiga** (**111,5 %**) nisbatan o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil etgan.


¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
(2023- yil yanvar oyida)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati ¹⁾	658,6	100,0	102,0
Jizzax shahri	275,2	41,8	97,6
Arnasoy	12,3	1,9	106,8
Baxmal	39,3	6,0	104,7
G'allaorol	50,6	7,7	98,7
Sharof Rashidov	91,8	13,9	109,8
Do'stlik	23,5	3,6	114,1
Zomin	53,8	8,2	107,6
Zarbdor	25,3	3,8	113,4
Zafarobod	11,7	1,8	109,6
Mirzacho'l	19,4	2,9	83,9
Paxtakor	21,3	3,2	107,2
Forish	29,0	4,4	107,8
Yangiobod	5,4	0,8	81,8

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari** *(yanvar oyida)*



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

 Hajmi, ming so'mda  O'sish sur'ati, % da

2023- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **451,2** ming so'mga yetdi. **2022-yil yanvar oyiga** nisbatan o'sish sur'ati **99,7** % ni tashkil etgan.


Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar
(2023- yil yanvar oyida)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	451,2	99,7
Jizzax shahri	1 453,7	95,2
Arnasoy	257,3	105,0
Baxmal	238,5	102,5
G'allaorol	279,3	96,5
Sharof Rashidov	392,9	106,9
Do'stlik	344,1	112,1
Zomin	310,5	105,0
Zarbdor	276,7	110,7
Zafarobod	224,5	107,5
Mirzacho'l	359,0	82,5
Paxtakor	271,7	104,8
Forish	301,4	106,1
Yangiobod	185,7	80,7

Kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yordam beradi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (yanvar oyida)

2019- yil yanvar oyi-
ga nisbatan 2023- yil
yanvar oyida kichik
tadbirkorlikning hajmi
190,8 mlrd. so'mga
oshib, 380,1 mlrd.
so'mni tashkil etdi.



■ Hajm, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi 57,7 % ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 18,4 % ini tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi

(2023- yil yanvar oyida)


Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlik umumiy hajmi-ning 37,7 % i yoki 103,7 mlrd. so'mni Jizzax shahri egallaydi.



■ Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi **30,5 %** ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, savdo xizmatlari **23,7 %**, transport xizmatlari **14,2 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **5,9 %**, ta'lim xizmatlari **4,0 %** darajasida qayd etildi. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi **1,3 %** darajasida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar oyida)




Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar oyida bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlar **21,4 %** ni, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlili sohasidagi xizmatlar esa **1,5 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar oyida)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	658,6	100,0	102,0
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	38,7	5,9	123,9
Moliyaviy xizmatlar	200,7	30,5	107,2
Transport xizmatlari	93,6	14,2	98,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	91,5	13,9	95,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	20,6	3,1	94,9
Savdo xizmatlari	179,2	27,2	94,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	11,3	1,7	95,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	25,9	4,0	124,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	12,1	1,8	89,9
Ijara xizmatlari	11,4	1,7	98,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	17,3	2,6	97,2
Shaxsiy xizmatlar	19,8	3,0	101,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	8,6	1,3	106,6
Boshqa xizmatlar	19,4	3,0	98,7

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (yanvar oyida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **23,2** mlrd. so'mga oshib, **200,7** mlrd. so'mga yetdi. Umumiy hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **30,5** % ni tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **107,2** % ni tashkil etdi.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

/// Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar oyida)

2023- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **95,8** % ni tashkil etdi.

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1-fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **609** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **4,2 %** ini tashkil etdi. Ulardan **606** birlik (**99,5 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.


2023- yil yanvar oyida transport xizmatlari hajmi **93,6** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning yanvar oyiga** nisbatan ushbu turdagi xizmatlar hajmining **2,0 %** ga pasayishi qayd etildi.

Transport xizmatlari (yanvar oyida)



Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi


(2023- yil yanvar oyida)



Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.

2022- yilning yanvar oyida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **91,5** mlrd. soʻmga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlari (yanvar oyida)



2022- yil yanvar oyiga nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **4,4 %** ga pasayganligi qayd etildi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,9 %**ni tashkil etdi.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


 Hajmi, mlrd. soʻm  Oʻsish surʻati, % da

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **55,3 %**.

Taqqoslash

uchun: 2022- yil yanvar oyida ushbu koʻrsatkich **56,1 %** ni tashkil etgan.

Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi




Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxлари orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning ulushi (**45,0 %** yoki **6 525** birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **99,8 %** ini (**6 514** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.

2019- yilning yanvar oyiga nisbatan 2023- yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi **86,5** mlrd. so'mga oshib, **179,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyiga nisbatan ushbu turdagi xizmatlar hajmining **5,3 %** ga pasayishi qayd etildi.

Savdo xizmatlari (yanvar oyida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

▨ Hajmi, mlrd. so'mda ⇨ O'sish sur'ati, % da

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi **83,6 %** ni tashkil etdi.

S
a
v
d
o

x
i
z
m
a
t
l
a
r
i

Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar oyida)

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar **83,6 %**

Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari **9,8 %**

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar **6,6 %**


Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi
(2023- yil yanvar oyida, % da)

	<i>Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar</i>	<i>Ulgurji savdo xizmatlari</i>	<i>Chakana savdo xizmatlari</i>
Jizzax viloyati	10,8	16,5	72,7
Jizzax sh.	5,1	14,8	80,1
Arnasoy	6,8	6,7	86,5
Baxmal	5,2	3,1	91,7
G'allaorol	7,1	8,1	84,8
Sharof Rashidov	6,6	19,0	74,4
Do'stlik	5,0	8,9	86,1
Zomin	1,7	3,9	94,4
Zarbdor	3,8	4,4	91,8
Zafarobod	1,8	12,6	85,6
Mirzacho'l	5,8	5,3	88,9
Paxtakor	3,3	2,4	94,3
Forish	10,8	16,5	72,7
Yangiobod	6,4	2,9	90,7

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **277** birlikka yetdi, shundan **260** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar oyida)



2023- yilning yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **38,7** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **2022- yilning yanvariga** nisbatan o'sish sur'ati **123,9** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar oyida)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar oyida)

	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	Oʻsish surʼati, <i>% da</i>
Jizzax viloyati¹⁾	38,7	100,0	123,9
Jizzax sh.	6,0	15,6	141,0
Arnasoy	1,1	2,8	123,8
Baxmal	3,6	9,4	124,4
Gʻallaorol	4,1	10,5	123,8
Sharof Rashidov	5,3	13,8	123,5
Doʻstlik	1,5	3,9	123,6
Zomin	3,8	9,9	124,6
Zarbdor	2,0	5,3	124,7
Zafarobod	1,2	3,0	124,4
Mirzachoʻl	1,2	3,1	123,6
Paxtakor	1,9	4,8	123,5
Forish	6,3	16,2	110,5
Yangiobod	0,7	1,7	122,8

¹⁾ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


2019- yilning yanvar oyiga nisbatan Jizzax shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **3,4** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **6,0** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **15,6 %** ni tashkil etdi.

Yangiobod tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **0,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma’lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

Telekommunikatsiya xizmatlari (yanvar oyida)

2023- yiling yanvar oyida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **33,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **5,2 %** ni tashkil etgan.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, mlrd. so‘mda ●⇒ O‘sish sur‘ati, % da

Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi

(2023- yil yanvar oyida, mlrd. so‘mda)




¹⁾ hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog’i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o’rgatishni o’z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o’xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o’qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko’rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar (yanvar oyida)



2023- yil yanvar oyida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 25,9 mlrd. so’mga yetdi. 2022- yil yanvar oyiga nisbatan o’sish sur’ati 124,0 % ni tashkil etdi.


/// Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, 2023- yilning yanvar oyida ularning ulushi 74,6 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **351** birlikni tashkil etdi, shundan **268** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar oyida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

 Hajmi, mlrd. so'mda  O'sish sur'ati, % da

2023- yil yanvar oyida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **12,1** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,8** % ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar oyida, mlrd. so'mda)




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 559** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 555** birlik kichik biznes subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar oyida)

2019- yil yanvar oyiga nisbatan 2023- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **12,2** mlrd. so'mga oshib, **20,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar oyida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar oyida)



2023- yilning yanvar oyida

ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **11,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyiga

nisbatan ushbu turdagi xizmatlar hajmining **4,9 %** ga pasayishi qayd etildi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


(2023- yil yanvar oyida, mlrd. so'mda)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ijara xizmatlari (yanvar oyida)



2019- yil yanvar oyiga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 4,0 mlrd. so'mga oshib, 2023- yil yanvar oyida 11,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2023- yil yanvar oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 65,9 % ni tashkil etdi.

Viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste'molchilarning, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 72-222-79-76